XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 20 - mart VI-75-31-12-0-K/24 Xorazm viloyati hokimligi

“Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar)ni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-sonli Farmoniga muvofiq xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi

Qaror qiladi:

1. “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori B.Kurbanovning axboroti, raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining tegishli xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan taklif etilayotgan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M. Iskandarov) 2019-yil 6-avgustda ro‘yxatga olingan “Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatilayotgan suv ta’minoti xizmatlari narx(tarif)larini belgilash yuzasidan qabul qilingan hujjatlari muvofiqlashtirsin.

4. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i D.Bekchanova, viloyat teleradiokompaniyasi direktori O‘.Matqurbanov

hamda “Xorazm haqiqati” va “Хорезмская правда” gazetalari birlashgan tahririyati bosh muharriri S.Raximberganovalarga ushbu qarorni rasman e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Sherjanov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi **R.Sherjanov**

Xalq deputatlari Xorazm viloyat
Kengashining
2024-yil 20-martdagi
VI-75-31-12-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

“Xorazm Obi Hayot” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar)

Xizmat turi	**O‘lchov birligi**	**Taklif etilayotgan narx (tarif)** (so‘m)
Aholi, byudjet tashkilotlari va ulgurji iste’molchilar uchun ichimlik suvi ta’minoti xizmati	1 m^3	7 500
Abonent to‘lovi	oylik	11 500

***Izoh:** *ichimlik suvi ta’minoti xizmati uchun narxlar (tariflar) qo‘shimcha qiymat solig‘isiz, so‘mda undiriladi.*